

ONA TILIMIZNI ASRAB-AVAYLASH INSONIYLIK BURCHIMIZDIR

Qoraqulova Nodira Axmadovna
Qashqadaryo viloyat Nishon tumani
2-umumiy o‘rta ta‘lim maktab o‘qituvchisi
Telefon: +998916408969
nadinka.uz@mail.ru

Annotatsiya: *Ushbu maqolada sharq mutafakkirlarimizning til xususidagi qarashlari va ularning yosh avlod tarbiyasidagi o‘rni, shuningdek adabiy til me‘yorlarining buzilish holatlari va ona tilimizni asrab-avaylash har bir millatimiz vakili oldidagi burch ekanligi bayon qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Til xususiyatlari, Alisher Navoiy, til millat ruhi, tilga bepisandlik, til sofligi, insoniylik burch.*

Insonlarning bir-birlari bilan asosiy aloqa muomila vositasi til sanaladi. Til bo‘lmasa, hech qanday ijtimoiy hodisa yuz bermaydi. Tasavvur qilib ko‘ringga?! Tilsiz jamiyat, tilsiz insoniyat qanday holatda bo‘lgan bo‘lar edi? Albatta, imo-ishoralar vositasi orqali qisman fikr ifodalash mumkin. Ammo hech qachon til o‘rnini bosolmaydi. Tilning behad cheksiz imkoniyatlarini insonlarga baxsh etolmaydi. Shunday ekan Alloh tomonidan biz insonlarga in‘om etilgan muqaddas va buyuk ne‘matning qadriga yetib, asrab-avaylash darkor. Shoirlarimiz ham bejizga aytishmagan, til kishini baxtli qiladi va shuning bilan bir qatorda tilga bepisand nazarda qarasang xor-zor qiladi.

Yaxshi so‘zdan ko‘rasan mehru vafo,

Nomunosib so‘zlasang, yetgay jaf.

Hayvonlardan farqli o‘laroq insonlarga in‘om etilgan til shunchaki muomila vositasi emas balki insoniylik sifatlarini namoyon etuvchi xazinadir. Shu bois shoirlarimiz tilni duru-gavharga qiyoslashgani ham bejizga emas. Zeroki...

So‘z durki nishon berur o‘likka jondin.

So‘z durki, berur jong‘a xabar jonondin.

Insonni so‘z ayladi judo hayvondin.

Bilkim, guhari sharifroq yo‘q ondin.

Darhaqiqat, Alisher Navoiy aytganlaridek, til hatto o‘likka ham jon ato etadi. Shuningdek, ikki narsa bilan inson qarimaydi derlar biri ezgu xulq, biri esa tildan chiqqan yaxshi so‘zdir.

Ma‘dani inson guhari so‘z durur.

Gulshani odam samari so‘z durur.

Shoir-u mutafakkirlarning til va uning qadr-qiyamati haqida keltirgan bu kabi dono fikrlar albatta bejizga aytilmagan. Til millatning qalbi. Bir millatning o‘ziga xos madaniyatini o‘rganish uchun eng avval uning tilini o‘rganish kerak. Har bir millat o‘z ona tilisiga ega. Til bilan ravnaq topadi va shuning bilan birga tanazzulga uchraydi. Shuning uchun ajdodlarimiz qadim zamonlardan oq til sofligi uchun qayg‘urishgan. Chunki millatni millat sifatida namoyon qiluvchi va shakllantiruvchi asosiy vosita uning tilidir. Bejizga mashoyixlar “Til- millatning ruhi” deyishmagan. Mustaqillik sharofati bilan tilimiz o‘z nufuzini, ruhini, shon-sharafini tiklab oldi. Bugungi yosh avlod qanchalik

o‘z ona tilini muqaddas bilib, uning imkoniyatlarini teran mushohada qilsa, o‘z millatining ham qadrini baland tutadi.

Afsuski, keyingi vaqtlarda ona tilimizga bepisand nazarga qarab, adabiy til me‘yorlarining buzilish holatlarini, buzilganda ham qo‘pollik bilan o‘zgarib ketayotganligining guvohi bo‘lyapmiz. Bu holat ayniqsa nodavlat ommaviy axborot vositalari, internet tarmoqlari, qo‘shiq, teatr va kino san‘atida sezilarli darajada kuzatilmoqda. Efirlarda uzatilayotgan ko‘plab ko‘rsatuv va eshittirishlar, yangrayotgan taronalarni e‘tibor bilan kuzatib, boshlovchilar va san‘atkorlarning nutqini adabiy til me‘yorlari bilan solishtirsangiz achinarli holatga guvoh bo‘lasiz. Bundan ham yomoni ayrim yoshlarimiz “Buning nimasi yomon, hamma o‘ziga qulay tilda gaplashadi-da” yoki “chet tillarni qo‘shib gapirish zamonaviylik belgisi”- degan fikrni ilgari surayotganidir. Ma‘lum ma‘noda ular ham haqdir. Biroq adabiy til me‘yorlarini buzish, unga bepisandlik bilan qarash ona tilimiz nufuzini paymol etish bilan barobar emasmi?! Xo‘sh ayting, o‘z tilini qadrlamagan kishi qanday qilib o‘zga tilga hurmat ko‘rsatishi mumkin?! To‘g‘ri sizga chet tillarni o‘rganmang demaymiz. Zero, “ Til bilgan- el bilar” degan naql bor. Ammo o‘z ona tilingizni kamsitish evaziga emas, bu insoniylik burchimizga ham to‘g‘ri kelmaydi.

Mahmud Koshg‘ariy, Zamaxshariy, Alisher Navoiy kabi daholarimizni yetishtirib bergan ona tilimizda bugun bemalol jahonning yuksak minbarlarida baralla so‘zlash mumkin bo‘lib qoldi. Endilikda millatimiz bilan tanishishni istagan xorijliklar boshqa til vositasida emas, balki o‘zbek tili orqali suhbatlashishga qiziqishmoqda. Jahonning juda ko‘plab yurtlaridan kelib, o‘zbek tilini o‘rganayotgan va bu tilda burro so‘zlayotgan yoshlarni ko‘rib, har qanday millatsevar insonning qalbi g‘urur-iftixorga to‘ladi. Shuning bilan bir qatorda o‘z ona tilini sevib, chet tillarda ham bemalol so‘zlashayotgan, har jabhada jahonni lol qoldirayotgan yoshlarimiz ham kam emas.

Til orqali chetdan so‘z kirib kelishi yaxshi, albatta. Bu bizning rivojlanayotganligimizdandir. Ammo, tilimiz sofligini saqlagan holda ulardan foydalanishda e‘tiborli bo‘lishimiz lozim. So‘zlayotgan so‘zingizning mazmun-mohiyatiga tushunmay turib, o‘zgalarga ham til orqali yod madaniyatni singdirish ona tilimizga bo‘lgan e‘tiborsizlik emasmi? Ayniqsa, bugungi kunda qayerga qaramang do‘kon, har xil xizmat ko‘rsatish shahobchalari, firma, kafe, restoranlarning nomlari xorijiy so‘zlar bilan nomlanayotgani, qo‘ygan nomlarining o‘zlari qilayotgan ishlari bilan hech qanday mantiqiy aloqasi yo‘qligi kishini ajablantiradi. “ Bu nom qanday ma‘noni bildiradi?” – deb, so‘rasangiz, “shu so‘z yaxshi eshitilar ekan, menga yoqib qoldi” kabi javob olasiz. Balki, ularning ko‘pchiligi o‘zlariga ma‘qul bo‘lgan so‘zlarning nimani anglatishini bilmaslar. Biroq o‘zbek tilida ham chiroyli, jarangdor, serma‘no nomlar qancha kerak bo‘lsa, shuncha topiladi. Tilimizga e‘tibor bergan holda o‘zimizga xos o‘zbekona nom tanlasak ham bo‘ladi-ku! Zero, shoir Muhammad Yusuf aytganidek, tilimizga qaytish osond bo‘lmadi-ku. Shunday zamon kelganda o‘zga tilga nehojat!

Bir qaragam har shevangda ming jilolar
Har novdangda, har mevanga ming jilolar.
Qodiriylar, Cho‘lponlar-u, Abdullolar,
Sening qaytgan kuning men tug‘ilgan yilim,
Ona tilim, ey muqaddas Ona tilim.

Moziyga qarab xulosa qiladigan bo‘lsak, o‘zbek tilimizni pok saqlash, uni asrab-avaylash faqat tilshunoslarning ishi emas, u millatimizning barcha vakillari uchun burchga aylansagina aniq maqsadga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Yormat T ojiyev. Til ilmiga sadoqat// Manba: “MUMTO SO‘Z”, Toshkent-2010, B-6-7.
2. Alisher Navoiy. Hikmatlar// Manba: “ SHARQ” Nashriyot-matbaa aktsiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, Toshkent-2010, B-100-143.
3. M.A‘lamova, SH.Ziyamuhamedova. nutqda aks etar bir olam boylik// Manba:TDYI nashriyoti, Toshkent-2009, B-27-37.
4. Abdumurod Tilovov. So‘z haqida// Manba: “ Sano-standart” nashriyoti, Toshkent-2011, B-6-9.
5. Muhammad Yusuf. Shoir sevgisi// Manba: “Noshir”, Toshkent-2015, B-10.